O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 159.923:378

Muhabbat YUNUSOVA,
O‘qituvchi, PDP Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: muhabbat.yunusova1994@gmail.com, ORCID: 0009-0001-0290-7445

PhD R.Rasulov taqrizi asosida

INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INTROVERTED STUDENTS IN HIGHER EDUCATION AND THEIR PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE

Annotation

The article examines the individual psychological characteristics of introverted students in higher education and their pedagogical significance. The relevance of the study lies in the widespread practice of equating student activity with the frequency of oral participation, which leads to an underestimation of introverted learners. Using theoretical and comparative analysis of peer-reviewed studies, conceptual differentiation and modelling, the study distinguishes introversion from shyness and social anxiety and shows that introversion in itself does not predict low academic achievement. A staged communication model combining individual preparation, asynchronous written communication, pair and small-group discussion and whole-class discussion is proposed as a conceptual basis for developing the learning and communicative activity of introverted students and for fairer assessment.

Key words: Introversion, individual psychological characteristics, higher education, learning and communicative activity, pedagogical approach, staged communication, shyness, reflection.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТУДЕНТОВ-ИНТРОВЕРТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматриваются индивидуально-психологические особенности студентов с интровертированными чертами в высшем образовании и их педагогическое значение. Актуальность исследования обусловлена распространённой практикой отождествления активности студента с частотой устных ответов, что приводит к недооценке студентов-интровертов. На основе теоретического и сравнительного анализа рецензируемых исследований, дифференциации понятий и концептуального моделирования интроверсия разграничена с застенчивостью и социальной тревожностью; показано, что сама по себе она не определяет низкую успеваемость. Предложена модель поэтапной коммуникации (индивидуальная подготовка, асинхронное письменное общение, обсуждение в парах и малых группах, общая дискуссия) как концептуальная основа развития учебно-коммуникативной активности студентов-интровертов и более справедливого оценивания.

Ключевые слова: Интроверсия, индивидуально-психологические особенности, высшее образование, учебно-коммуникативная активность, педагогический подход, поэтапная коммуникация, застенчивость, рефлексия.

OLIY TA’LIMDA INTROVERSIV TALABALARNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’limda introversiv xususiyatli talabalarning individual-psixologik xususiyatlari va ularning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Mavzuning dolzarbligi talaba faolligini og‘zaki javoblar soni bilan tenglashtirish amaliyoti introvert talabalarning imkoniyatlarini past baholashga olib kelayotgani bilan izohlanadi. Taqriz qilingan ilmiy tadqiqotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish, tushunchalarni differensiallashtirish hamda konseptual modellashtirish metodlari asosida introversivlik tortinchoqlik va ijtimoiy xavotirdan farqlangan, u o‘z-o‘zidan past o‘zlashtirish omili emasligi asoslangan. Individual tayyorgarlik, asinxron yozma muloqot, juftlik va kichik guruhda muhokama hamda umumiy muhokamani birlashtiruvchi bosqichli kommunikatsiya modeli introvert talabalarning o‘quv-kommunikativ faolligini rivojlantirish va baholashni xolislashtirishning konseptual asosi sifatida taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Introversivlik, individual-psixologik xususiyatlar, oliy ta’lim, o‘quv-kommunikativ faollik, pedagogik yondashuv, bosqichli kommunikatsiya, tortinchoqlik, refleksiya.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarining markazida inson kapitalini rivojlantirish va har bir yoshning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish g‘oyasi turadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega shaxslar etib tarbiyalashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilaydi [1]. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarning mustaqil ta’lim olishini kengaytirish va ta’lim sifatini xalqaro talablarga moslashtirish vazifalari qo‘yilgan [2]. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham oliy ta’lim sifatini oshirish va uni inson kapitali rivojiga xizmat qildirish muhim maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan [3]. Mazkur vazifalarni hayotga tatbiq etish talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga oluvchi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim auditoriyasi bilish sur’ati, muloqot uslubi, motivatsiya va temperament jihatidan bir xil emas. Shunga qaramay, amaliyotda talabaning faolligi ko‘pincha seminar mashg‘ulotida necha marta so‘z olgani yoki qancha savol bergani bilan o‘lchanadi. S.Keyn bu holatni zamonaviy jamiyatga xos “ekstravert ideal” deb ataydi: ochiq, ko‘p gapiradigan va tez javob beradigan shaxs namuna sifatida qabul qilinadi, sokin va mulohazakor kishilarning imkoniyatlari esa e’tibordan chetda qoladi [4]. Natijada introversivlik belgilari yaqqol namoyon bo‘ladigan talaba o‘quv materialini puxta o‘zlashtirgan bo‘lsa ham “passiv” yoki “befarq” deb baholanishi mumkin. Bunday baholash uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi, o‘quv-kommunikativ faollik rivojiga to‘sqinlik qiladi va pedagogik baholashning xolisligiga putur yetkazadi.

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta’limda introversiv talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va ularning o‘quv-kommunikativ faolligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvni asoslashdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: introversivlik tushunchasining psixologik mazmunini aniqlash; uni tortinchoqlik va ijtimoiy xavotirdan farqlash; introvert talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtirokiga oid empirik tadqiqotlar natijalarini qiyoslash; individual farqlarni hisobga oluvchi bosqichli kommunikatsiya modelini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Introversiya va ekstraversiya tushunchalari ilmiy muomalaga K.G.Yung tomonidan kiritilgan. U introvertni psixik energiyasi asosan ichki dunyo – fikrlar, kechinmalar va sub’ektiv tajribaga yo‘naltirilgan shaxs sifatida tavsiflagan [5]. G.Ayzenk bu g‘oyani empirik asosga qo‘yib, introvertlarda bosh miya po‘stlog‘ining bazaviy qo‘zg‘alish darajasi yuqoriroq bo‘lishini, shu sababli ular kuchli tashqi stimullardan tezroq toliqishi va sokinroq muhitni afzal ko‘rishini asoslagan [6]. R.Makkrey va O.Jon shaxsning besh omilli modelida ekstraversiyani individual farqlarni ifodalovchi asosiy o‘lchamlardan biri sifatida ko‘rib chiqadi [7]. Ushbu modelga ko‘ra introversivlik qat’iy “tip” emas, balki uzluksiz shkaladagi nisbiy holat bo‘lib, ko‘pchilik odamlar ikki qutb oralig‘ida joylashadi. O‘zbek psixologiyasida E.G‘oziyev temperament va xarakter xususiyatlarini shaxs faoliyati uslubini belgilovchi omillar sifatida tahlil qilib, ta’lim jarayonida individual farqlarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [8].

Shaxs xususiyatlari va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik meta-tahliliy tadqiqotlarda ham o‘rganilgan. A.Poropat besh omilli model asosida bajarilgan ko‘plab tadqiqotlarni umumlashtirib, o‘qishdagi natijalar bilan eng barqaror bog‘langan xususiyat vijdonlilik ekanini, ekstraversiya bilan akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik esa juda zaif ekanini aniqlagan [9]. M.Komarraju va hammualliflar ham talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi ko‘proq vijdonlilik, hamkorlikka moyillik va o‘quv uslublari bilan bog‘liqligini ko‘rsatgan [10]. Demak, introversivlik o‘z-o‘zidan past o‘zlashtirish omili hisoblanmaydi.

Talabalarning o‘quv jarayoniga jalb etilishi (engagement) masalasida Dj.Fredriks va hammualliflar xulq-atvor, emotsional va kognitiv jalb etilishni alohida farqlaydi [11]. E.Kahu esa oliy ta’limda jalb etilishni xulq-atvor, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar uyg‘unligidagi ko‘p qirrali hodisa sifatida izohlaydi [12]. Bu yondashuvlardan kelib chiqadiki, faollikni faqat og‘zaki ishtirok bilan o‘lchash cheklangan: talaba auditoriyada sukut saqlagan holda ham chuqur kognitiv faoliyat va ichki refleksiya bilan band bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlarda yana bir muammo – yaqin tushunchalarning chalkashtirilishi kuzatiladi. K.Bruk va T.Uilobi tortinchoqlik va ijtimoiy xavotirni o‘z-o‘zini baholash orqali o‘lchashdagi tushunchaviy noaniqliklarni ko‘rsatib, psixologik xususiyatlarni baholash mezonlarini aniqlashtirish zarurligini qayd etadi [13]. A.Medayl va Dj.Usinger kamgap talabalarni o‘qituvchilar ko‘pincha o‘quv jarayoniga jalb etilmagan shaxslar sifatida noto‘g‘ri baholashini, ularning sukuti esa shaxsiy xususiyat, o‘zlashtirilgan xulq-atvor yoki vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [14]. Shunday qilib, introversivlikning psixologik mohiyati yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, uning oliy ta’limdagi o‘quv-kommunikativ faollik bilan aloqasi va amaliy pedagogik yondashuvga aylantirilishi, ayniqsa o‘zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda kam o‘rganilgan. Aynan shu bo‘shliq mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, induktiv yondashuvga asoslandi: alohida tadqiqotlar natijalari qiyoslanib, ular asosida umumiy pedagogik xulosalar va konseptual model shakllantirildi. Tadqiqot dizayni ikkilamchi ma’lumotlarni tizimli tahlil qilishni nazarda tutadi. Manbalar Google Scholar, ScienceDirect, Taylor & Francis va Wiley elektron bazalaridan “introversion”, “quiet students”, “student engagement”, “classroom participation”, “personality and academic performance” kalit so‘zlari yordamida izlandi. Tanlov mezonlari sifatida quyidagilar belgilandi: manbaning taqriz qilinadigan ilmiy nashrda chop etilgani; introversivlikning psixologik mohiyati, talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtiroki yoki kommunikativ faollikni rivojlantirish metodlariga bevosita aloqadorligi; ishonchli bibliografik ma’lumotlar (DOI) mavjudligi. Shuningdek, klassik nazariy asarlar va O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari tahlilga jalb etildi.

Tahlil uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda introversivlikning psixologik mazmuni va unga yaqin tushunchalar – tortinchoqlik hamda ijtimoiy xavotir differensiallashtirildi. Ikkinchi bosqichda introvert talabalarning o‘quv jarayonidagi ishtirokiga oid empirik tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlil qilindi; bunda har bir tadqiqotning tanlanmasi va o‘tkazilgan ta’lim muhiti hisobga olindi. Uchinchi bosqichda pedagogik umumlashtirish va konseptual modellashtirish orqali bosqichli kommunikatsiya modeli ishlab chiqildi. Tadqiqotning ishonchliligi (reliability) faqat taqriz qilingan manbalardan foydalanish, aniqligi (validity) esa har bir xulosani muayyan manbaga tayantirish orqali ta’minlandi. Tadqiqotning cheklovi shundaki, ushbu bosqichda yangi so‘rovnoma yoki pedagogik tajriba-sinov o‘tkazilmadi, shu bois taklif etilgan model gipotetik xarakterga ega va keyingi empirik tekshiruvni talab qiladi.

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari, avvalo, introversivlikni tortinchoqlik va ijtimoiy xavotirdan aniq farqlash zarurligini ko‘rsatdi. Introversivlik energiya manbai va tashqi stimullarga munosabat bilan bog‘liq barqaror shaxs xususiyatidir; tortinchoqlik ijtimoiy vaziyatlarda noqulaylik va salbiy baholanishdan cho‘chish bilan tavsiflanadi; ijtimoiy xavotir esa kundalik faoliyatni cheklashi mumkin bo‘lgan kuchliroq hissiy holatdir [6]. Ushbu farqlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Introversivlik va unga yaqin tushunchalarning qiyosiy tavsifi

Mezon	Introversivlik	Tortinchoqlik	Ijtimoiy xavotir
Mohiyati	Ichki dunyoga yo‘nalganlik, sokin muhitni afzal ko‘rish; barqaror shaxs xususiyati	Yangi yoki baholovchi vaziyatlarda noqulaylik va ikkilanish	Salbiy baholanishdan kuchli qo‘rquv; faoliyatni cheklovchi hissiy holat

Muloqotdagi ko‘rinishi	Muloqotga kirisha oladi, ammo oldindan o‘ylab, kichik guruhda gapirishni afzal ko‘radi	Muloqotni xohlaydi, lekin xavotir tufayli o‘zini tiyadi	Muloqot vaziyatlaridan qochadi, fiziologik reaksiyalar kuzatiladi
Akademik faoliyatga ta’siri	O‘zlashtirish bilan bevosita bog‘liq emas	Og‘zaki ishtirokni kamaytirishi mumkin	O‘zlashtirish va ishtirokka sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin
Pedagogik yondashuv	Tayyorgarlik uchun vaqt, yozma va juftlikdagi muloqot	Qo‘llab-quvvatlovchi muhit, bosqichma-bosqich jalb etish	Psixolog bilan hamkorlik, individual qo‘llab-quvvatlash

Manba: [5] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, introvert talaba o‘qituvchidan “tuzatish”ni emas, balki o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishi uchun mos sharoitni kutadi. Tortinchoqlik va ijtimoiy xavotir holatlarida esa pedagogik yondashuv psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan to‘ldirilishi lozim. Bu farqni e’tiborsiz qoldirish talabani sukuti uchun past baholash kabi noto‘g‘ri qarorlarga olib keladi.


Ikkinchidan, qiyosiy tahlil kommunikativ ishtirok shaxs xususiyatlari va ta’lim muhitining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishini ko‘rsatdi. A.Kaspi va hammualliflarning 214 nafar universitet talabasi ishtirokidagi tadqiqotida shaxs xususiyatlari auditoriyadagi bevosita muloqotda va internetga asoslangan o‘quv muhitida turlicha namoyon bo‘lgan [15]. Demak, auditoriyada kam gapiradigan talaba boshqa muloqot shaklida faolroq bo‘lishi mumkin. S.Shmidt o‘quv jarayonida introvert va ekstravert temperamentlarning xilma-xilligini hisobga olish uchun individual tayyorgarlik, juftlikdagi muhokama va yozma kommunikatsiyadan foydalanishni tavsiya etadi [16]. L.Mundelze va S.Yurkovskiy 393 nafar to‘qqizinchi sinf o‘quvchisi ishtirokida “Think–Pair–Share” (o‘yla – juftlikda muhokama qil – baham ko‘r) strategiyasini sinab, juftlikdagi fikr almashish keyingi umumiy muhokamada ishtirokni oshirishini aniqlagan [17]. Ushbu natija maktab o‘quvchilarida olingani sababli uni oliy ta’lim uchun bevosita isbot sifatida qabul qilib bo‘lmaydi, biroq bosqichli kommunikatsiya tamoyili oliy ta’limda sinovdan o‘tkazishga arziydigan metodik yechimdir. K.Xyu va V.Cheung asinxron onlayn muhokamalarda savol berish, shaxsiy fikr bilan bo‘lishish va ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash kabi usullar talabalar ishtirokini rag‘batlantirishini ko‘rsatgan [18]. Yozma va asinxron muloqot introvert talabaga fikrini shoshilmasdan shakllantirish imkonini berishi bilan ayniqsa qimmatlidir.

Uchinchidan, tahlil asosida talabalarning individual-psixologik xususiyatlarining pedagogik ahamiyati uch yo‘nalishda namoyon bo‘lishi aniqlandi: o‘quv topshiriqlarini talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirish; kommunikativ faoliyat shakllarini xilma-xillashtirish (og‘zaki, yozma, juftlikdagi, guruhli, raqamli); baholashni og‘zaki chiqishlar sonidan fikr mazmuni, refleksiya va individual rivojlanish dinamikasiga yo‘naltirish. Ushbu yo‘nalishlar asosida bosqichli kommunikatsiya modeli ishlab chiqildi (2-jadval, 1-rasm).

2-jadval. Bosqichli kommunikatsiya modelining tarkibiy qismlari

Bosqich	Talaba faoliyati	O‘qituvchi vazifasi	Baholash ko‘rsatkichi
1. Individual tayyorgarlik	Savol ustida mustaqil fikrlash, qisqa yozma javob tayyorlash	Savolni oldindan e’lon qilish, tayyorlanish uchun vaqt berish	Yozma javobning mazmuni va asoslanganligi
2. Asinxron yozma muloqot	Onlayn forum yoki LMS tizimida fikr bildirish, boshqalar fikriga izoh yozish	Muhokamani yo‘naltirish, aniqlashtiruvchi savollar berish	Fikrlarning mantiqiyligi, izohlar sifati
3. Juftlik va kichik guruhda muhokama	Fikrni sherigi bilan solishtirish, umumiy pozitsiya ishlab chiqish	Guruhlarni shakllantirish, rollarni taqsimlash	Hamkorlikdagi ishtirok, dalil keltirish
4. Umumiy muhokama	Guruh nomidan yoki shaxsan auditoriyada fikr bildirish	Barcha guruhlarga so‘z berish, qo‘llab-quvvatlovchi fikr-mulohaza bildirish	Nutq mazmuni, refleksiya sifati

Manba: [16; 17; 18] asosida muallif ishlanmasi.



1-rasm. Introvert talabalarning o‘quv-kommunikativ faolligini rivojlantirishning bosqichli kommunikatsiya modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Modelning asosiy g‘oyasi – kommunikativ vaziyatning ochiqlik va murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish. Talaba avval fikrini mustaqil va yozma shaklda shakllantiradi, so‘ng uni xavfsizroq muhitda – sherigi yoki kichik guruh bilan sinab ko‘radi va shundan keyingina umumiy muhokamaga chiqadi. Har bir sikl refleksiya (o‘z fikrini va ishtirokini tahlil qilish) va o‘qituvchining individual fikr-mulohazasi bilan yakunlanadi, bu esa keyingi siklda talabaning kommunikativ ishonchini oshiradi; muntazam refleksiya talabaga o‘z o‘sishini anglash imkonini beradi. Bunday tartib introvert talabaning individual-psixologik xususiyatlarini o‘zgartirishga emas, balki uning mazmunli muloqot qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Individual tayyorgarlik bosqichi ekstravert talabalar javoblarini ham chuqurroq qilgani uchun bu pedagogik yondashuv barcha talabalar uchun inklyuziv xarakterga ega.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish oliy ta’limda o‘quv-kommunikativ faollikni rivojlantirishning muhim sharti ekanini ko‘rsatdi. Birinchidan, introversivlik talabaning bilim olish salohiyati yoki kommunikativ kompetensiyasi yetishmasligini anglatmaydi; u shaxsning stimullarga munosabati va faoliyat uslubi bilan bog‘liq nisbiy xususiyatdir. Ikkinchidan, introversivlikni tortinchoqlik va ijtimoiy xavotir bilan tenglashtirish metodologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lib, noto‘g‘ri pedagogik qarorlarga olib keladi. Uchinchidan, talabaning o‘quv-kommunikativ faolligi shaxs xususiyatlari va pedagogik muhitning o‘zaro ta’siri natijasida

shakllanadi, shu sababli uni rivojlantirishning asosiy vositasi muloqot shakllarini xilma-xillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: oliy ta’lim muassasalarida seminar mashg‘ulotlarini individual tayyorgarlik, yozma muloqot, juftlik va kichik guruhda muhokama hamda umumiy muhokamani o‘z ichiga olgan bosqichli kommunikatsiya asosida tashkil etish; talabalar faolligini baholash mezonlariga og‘zaki javoblar soni bilan bir qatorda yozma fikrlar mazmuni, mustaqil topshiriqlar sifati va refleksiya darajasini kiritish; professor-o‘qituvchilar malaka oshirish dasturlariga talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olishga oid modul kiritish; ta’lim muassasasi psixologik xizmati bilan hamkorlikda tortinchoqlik va ijtimoiy xavotir belgilari bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash.

Kelgusidagi tadqiqotlar taklif etilgan modelning samaradorligini O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi pedagogik tajriba-sinov orqali empirik tekshirishga, shuningdek, introversivlik darajasini o‘lchovchi metodikalarni o‘zbek tiliga moslashtirishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Taklif etilgan nazariy-pedagogik yondashuv introvert talabalarning o‘quv-kommunikativ faolligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. Cain S. Quiet: The Power of Introverts in a World That Can’t Stop Talking. – New York: Crown Publishers, 2012.
5. Jung C.G. Psychological Types // The Collected Works of C.G. Jung. Vol. 6. – Princeton: Princeton University Press, 1971.
6. Eysenck H.J. The Biological Basis of Personality. – Springfield (IL): Charles C. Thomas, 1967.
7. McCrae R.R., John O.P. An introduction to the five-factor model and its applications // Journal of Personality. – 1992. – Vol. 60, No. 2. – P. 175–215. DOI: 10.1111/j.1467-6494.1992.tb00970.x.
8. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
9. Poropat A.E. A meta-analysis of the five-factor model of personality and academic performance // Psychological Bulletin. – 2009. – Vol. 135, No. 2. – P. 322–338. DOI: 10.1037/a0014996.
10. Komarraju M., Karau S.J., Schmeck R.R., Avdic A. The Big Five personality traits, learning styles, and academic achievement // Personality and Individual Differences. – 2011. – Vol. 51, No. 4. – P. 472–477. DOI: 10.1016/j.paid.2011.04.019.
11. Fredricks J.A., Blumenfeld P.C., Paris A.H. School engagement: Potential of the concept, state of the evidence // Review of Educational Research. – 2004. – Vol. 74, No. 1. – P. 59–109. DOI: 10.3102/00346543074001059.
12. Kahu E.R. Framing student engagement in higher education // Studies in Higher Education. – 2013. – Vol. 38, No. 5. – P. 758–773. DOI: 10.1080/03075079.2011.598505.
13. Brook C.A., Willoughby T. Shyness and social anxiety assessed through self-report: What are we measuring? // Journal of Personality Assessment. – 2019. – Vol. 101, No. 1. – P. 54–63. DOI: 10.1080/00223891.2017.1388808.
14. Medaille A., Usinger J. Engaging quiet students in the college classroom // College Teaching. – 2019. – Vol. 67, No. 2. – P. 130–137. DOI: 10.1080/87567555.2019.1579701.
15. Caspi A., Chajut E., Saporta K., Beyth-Marom R. The influence of personality on social participation in learning environments // Learning and Individual Differences. – 2006. – Vol. 16, No. 2. – P. 129–144. DOI: 10.1016/j.lindif.2005.07.003.
16. Schmidt S.J. Personality diversity: Extrovert and introvert temperaments // Journal of Food Science Education. – 2016. – Vol. 15, No. 3. – P. 73–74. DOI: 10.1111/1541-4329.12091.
17. Mundelsee L., Jurkowski S. Think and pair before share: Effects of collaboration on students’ in-class participation // Learning and Individual Differences. – 2021. – Vol. 88. – Article 102015. DOI: 10.1016/j.lindif.2021.102015.
18. Hew K.F., Cheung W.S. Attracting student participation in asynchronous online discussions: A case study of peer facilitation // Computers & Education. – 2008. – Vol. 51, No. 3. – P. 1111–1124. DOI: 10.1016/j.compedu.2007.11.002.